

O‘ZBEK VA NEMIS DARS DISKURSIDA O‘QITUVCHI NUTQINING INTERAKTIV XUSUSIYATLARI

Astonova Go‘zalxon Raxmonaliyevna

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

E-mail: gozalxonastonova@gmail.com +998916618583

ORCID ID: 0009-0000-1845-421X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20610560>

Annotatsiya:

Ushbu tezisda o‘zbek va nemis ta’lim diskursida madaniyatlararo kompetensiyaning namoyon bo‘lish xususiyatlari M. Bayram nazariyasi asosida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘qituvchi nutqidagi madaniy kodlar, muloqot uslublari va dars jarayonidagi sotsiokommunikativ maydonning o‘ziga xosligi o‘rganilgan.

Abstract

This thesis provides a comparative analysis of the manifestation of intercultural competence in Uzbek and German educational discourse based on M. Byram’s model. The study examines cultural codes in teacher speech, communication styles, and the specific nature of the socio-communicative environment during lessons.

Аннотация:

В данных тезисах на основе теории М. Байрама сравнительно анализируются особенности проявления межкультурной компетенции в узбекском и немецком образовательном дискурсе. В исследовании изучаются культурные коды в речи учителя, стили общения и специфика социокоммуникативного пространства на уроках.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo kompetensiya, ta’lim diskursi, o‘qituvchi nutqi, dialogik muloqot, madaniy kod, Diskursfähigkeit, pragmatik aniqlik.

Keywords: intercultural competence, educational discourse, teacher speech, dialogic communication, cultural code, Diskursfähigkeit, pragmatic clarity. **Ключевые слова:** межкультурная компетенция, образовательный дискурс, речь учителя, диалогическое общение, культурный код, Diskursfähigkeit, прагматическая точность.

Zamonaviy tilshunoslik va pedagogikada til shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki muayyan xalqning milliy dunyoqarashi va madaniy kodini tashuvchi sotsiomadaniy hodisa hisoblanadi. Shu bois, ta’lim diskursida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot tizimi har bir jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy qadriyatlarini hamda etiket me‘yorlari asosida shakllanadi.

Ta’limning madaniyatlararo kompetensiyasini o‘rgangan yetuk olimlardan biri Byram uni besh tarkibiy qismga ajratgan: *bilim (knowledge)*, *ko‘nikma (skills)*, *hissiy tayyorgarlik (attitudes)*, *madaniyatlararo tushunish (interpretation)* va *tanqidiy xabardorlik (critical awareness)*. Shu asosda, o‘qituvchi va o‘quvchi muloqotida bu elementlar til orqali namoyon bo‘lishini dalillagan.[1]

O‘zbek muhitida madaniyatlararo kompetensiya, asosan, hurmat va muomala madaniyati orqali ifodalanadi. Masalan, o‘qituvchi nutqida “aziz o‘quvchi”, “ilmga chanqoq og‘il qizlar”, “tirishqoq bolajonlar” kabi murojaatlar madaniy kodning ajralmas qismidir. Bu kod o‘quvchiga faqat ilm o‘rganish emas, balki madaniyatning “ustoz-shogird” modelini singdiradi.

Nemis tilida esa o‘qituvchi-o‘quvchi muloqoti *samaradorlik va tenglik* tamoyiliga quriladi. Dars jarayonida “Sie” (hurmat shakli) ishlatilsa-da, diskursda shaxsiy fikr bildirish erkinligi

ustuvor. Masalan, o'qituvchi “Was denkst du darüber?” (“Bu haqda o'zing nima deb o'ylaysan?”) kabi so'rovlar bilan o'quvchini faol subyekt sifatida jalb etadi.[2]

O'zbek ta'lim diskursidagi o'qituvchi nutqiga to'xtaladigan bo'lsak, u me'yoriy, tarbiyaviy va rasmiy tusda bo'ladi. Nutqda ijtimoiy masofa, odob, ehtirom ustuvor ahamiyatga ega. Misol uchun, “ustoz” so'zi axloqiy va ijtimoiy ustunlik ramzidir. O'qituvchi harakati, ohangi va nutqi – jamiyatdagi iyerarxiyani aks ettiradi.

Nemis ta'lim muhitida esa madaniy kod ochiqlik, aniqlik va individual mas'uliyat tamoyillarini ifodalaydi. Nemislarda o'qituvchining haddan tashqari talabchanligi insoniy muloqotga zarar keltirganligi tanqid qilinadi. Shu bois, zamonaviy nemis ta'limida o'qituvchi insoniy muloqotchi va yo'l ko'rsatuvchi sifatida qayta talqin qilinadi.

O'zbek madaniyatida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nutqiy aloqa axloqiy-ijtimoiy me'yorlar bilan tartibga solinadi. “O'qituvchi gapini bo'lma”, “ustoz so'zi – qonun”, “o'qituvchidan keyin kirma”, “ustoz – otangdek ulug'” kabi ijtimoiy qoida nutq odobiga singdirilgan. Shu sababli o'quvchi nutqi ko'proq passiv, tinglovchi sifatida shakllanadi.

Nemis madaniyatida esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot interaktiv, dialogik va tanqidiy tusda kechadi. O'qituvchi ko'proq jarayonni yengillashtiruvchi (facilatator) rolini bajaradi. Maktab darslarida “Diskutieren wir zusammen!” (“Keling, birgalikda bahslashamiz!”) yoki “Ich bin nicht einverstanden. Was meinst du?” (“Men rozi emasman. Sening fikring qanday?”) kabi iboralar o'quvchining fikr bildirish madaniyatini shakllantiradi.[3]

O'zbek tilidagi dars diskursida intonatsiya va marhamat ohangi madaniy kod hisoblanadi: “Bolajonlar, endi darsni boshlaymiz” “Marhamat, kim javob beradi?” Bu jumlar nafaqat til, balki jamiyatdagi “mehribonlik asosidagi boshqaruv” modeli orqali madaniyatning ijtimoiy vazifasini ifodalaydi.

Nemis sinflarida esa nutq aniq va to'g'ridan to'g'ri ifoda uslubida kechadi:

“Kommen wir zur Aufgabe!” (“Topshiriqqa o'tamiz!”) “Bitte, beantworten Sie die Frage.” (“Iltimos, savolga javob bering.”) Bu muloqot uslubi madaniy jihatdan vaqtni qadrlash, natijaga yo'naltirilganlik va ijtimoiy mas'uliyat qadriyatlarini bilan bog'liq.

O'zbek ta'lim tizimida madaniyatlararo kompetensiya ko'proq an'anaviy ustoz-shogird qadriyatlarini orqali shakllanadi. O'quvchidan ustozni tinglash, buyruqlarni bajarish, odobni saqlash kutiladi. Biroq so'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida dialogik muloqot tamoyili keng joriy etilmoqda.[4]

Nemis ta'lim tizimida esa madaniyatlararo kompetensiya ko'p madaniyatli muhit va tanqidiy fikrlash orqali rivojlanadi. Masalan, nemis maktab darsliklarida o'quvchilar global madaniyatlar bilan tanishadi, bahs-munozaralarda turli nuqtayi nazarlarni tahlil qiladi. Bu jarayon “Diskursfähigkeit” (diskursga kirishish qobiliyati) tushunchasi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatda milliy etik me'yorlarning ta'siri kuchli. O'zbek o'quvchisi “ustoz”ni ma'naviy rahbar deb bilsa, nemis o'quvchisi “Lehrer”ni professional sherik sifatida qabul qiladi.

O'zbek adabiyotida o'qituvchi va shogird o'rtasidagi madaniy muloqotning eng yorqin namunalaridan biri G'afur G'ulomning “Shum bola” asaridadir. Asarda o'qituvchi Shokir akaning nutqida pedagogik madaniyatning ijtimoiy mezonlari ochiq ko'rinadi: “*O'qimagan odam ko'r, bolam. Ilm ol, kitob o'qi, shunda odam bo'lasan*” (G'.G'ulom, “Shum bola”). Bu o'qituvchi nutqidagi axloqiy yo'naltirilganlikni, madaniyatning “ilm orqali inson bo'lish” falsafasini ifodalaydi.

Nemis adabiyotida bu jarayon Hermann Hesse va Goethe asarlarida ramziy tarzda ifodalanadi. Goethe “Wilhelm Meisters Lehrjahre” (1795) asarida shunday yozadi: “*Nur durch sich selbst kann der Mensch gebildet werden.*”

(“Inson faqat o‘zi orqali tarbiyalanadi”). Bu ibora madaniyatlararo kompetensiyaning nemischa talqinini, ya‘ni o‘z-o‘zini anglash va mustaqil tafakkur orqali madaniyatni o‘zlashtirishni ifodalaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – P. 124.
2. Brzosko-Barratt K., Rozmanič T., Baldassari S. Enhancing Intercultural Teaching Competencies through Internationalisation of Pre-service Primary Foreign Language Teachers // New Horizons in Education, 2025. – B. 118-136.
3. Kuliyeu O., Ziyaeva K., Abdurasulova K. Beyond Knowledge: Measuring the Impact of Cultural Intelligence on Student Performance in Global Education // Qubahan Academic Journal, 2025. – № 4. – B. 203-215.
4. Abdurakhmonova N., Aripov M., Duarte A. Erasmus+ Project Experiences on the Computational Linguistics Master Degree in the Central Asia Universities // INTED Conference Proceedings, 2020. – B. 455-460.